



SHOXIMARDON DARYOSI HAVZASIDA TARQALGAN LAMIACEAE - YALPIZDOSHLAR OILASI DORIVOR VAKILLARI

Akbarova Muhayyo Xusanovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Qosimova Madinabonu Ravshanjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Farg'ona vodiysining boy florasi foydali, shu jumladan, xalq va ilmiy tabobatda turli xastaliklarni davolashda ishlatiladigan dorivor o'simliklari bilan asrlar osha kishilarni o'ziga jalb etib keladi. Vodiya tog'rayhon, kiyiko'ti, ermon (achchiq shuvoq), qizilcha, qator gulli afsonak, oddiy dalachoy, dala qirqbo'g'imi, oddiy bo'yimodaron va Turkiston arslonquyruqlarining yer utski qismlari, katta zupturum va qoraqobuq barglari, na'matak mevasi, bodom urug'i kabi dorivor o'simliklar har yili katta miqdorda yig'ib olinadi.

Shuningdek Shoximardon daryosi havzasi ham shifobaxsh va dorivor o'simliklarning katta resurslariga ega, ulardan sanoat miqyosida (xapri, adonis, shuvoq, tog'rayxon, kiyik o'ti, na'matak), hamda cheklangan holatda mahalliy ehtiyojlar uchun foydalanish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim muhim va ahamiyatli turlardan choy o'ti, o'lmas o't, chakanda, parpi, sug'ur o'ti, hiyol kabilar zahiralari juda kamayib ketganligini hisobiga olgan holda, mazkur turlarni madaniylashtirish zarur.

Shoximardon daryosi havzasida tarqalgan Yalpizdoshlar – Lamiaceae oilasi shifobaxsh va dorivor o'simliklarini o'rganish boyicha tadqiqot ishi birinchi marotaba qilindi. Tadqiqot davomida Lamiaceae oilasi shifobaxsh va dorivor o'simliklarining 26 turkum va 69 turdan iborat ekanligi aniqlandi. Turkumlar bo'yicha turlar bir hil tarqalmagan. Turlarning ko'pligi jihatidan *Phlomoidea Moench*. turkumi vakillari ajralib turadi. Ikkinchi o'rinda *Scutellaria L.*, uchinchi o'rinda esa *Salvia L.* turkumi turlari ko'p tarqalishi jihatidan yetakchi o'rinlarda turadi.

O'simliklar hayotiy shakllarini Raunkiye sistemasi bo'yicha fanerofitlar (ya'ni daraxtlar) yo'q, xamefitlar (30,6%), gemikriptofitlar (61%), kriptofitlar uchramaydi, terofitlarga (8,4%) o'simliklar mansubligi aniqlandi.

Shoximardon daryosi havzasida tarqalgan Lamiaceae oilasi turlarining xalq xo'jaligida foydalanilishi va ishlatilishi bo'yicha tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi, asal-shirali 60%, dorivor 29%, efir moyli 42%, dekorativ, ya'ni manzarali 11,3%, oziq-ovqat 8% ni tashkil qildi.

Lamiaceae oilasining 28 turi dorivor shifobaxsh xususiyatga ega bolib, turkumlar orasida *Lagochilus Bunge ex Benth.*, *Ziziphora L.*, *Salvia L.*, *Dracocephalum L.* yetakchilik qiladi. *Perovskia Kar.*, *Stachys L.*, *Mentha L.*, *Nepeta L.*, *Lycopus L.*, *Lamium L.*, *Scutellaria L.*, turkumlarning ham dorivor vakillari borligi ma'lum bo'ldi.



Quyida keng tarqalgannayrim vakillari haqida ma'lumot beriladi.

Dorivor limono't-Melissa officinalis L. Ko'p yillik, poyasi tik, asosidan shoxlanuvchan, qalin dag'al bezlar va tuklar bilan qoplangan, limon singari hidga ega, 30-60 sm balandlikdagi o't o'simlik. Barglari tuxumsimon, chetlari yirik tishchali, ostki tomoni tuksiz, ust tomoni siyrak kalta tuklangan. Gullari uzun tutqichli, halqasimon joylashgan. Kosachasi 7-8 mm uzunlikda, uzun tolali tuklarga ega. Tojbargalari oq, tashqi tomoni biroz tuklangan, 13-14 mm uzunlikda. Yong'oqchasi uch qirrali, to'q-qo'ng'ir 1.7 mm uzunlikda. Iyun-avgust oylarida gullab, Iyul-sentyabr oylarida urug'i yetiladi. Tog'larni o'rta mintaqalarida, qoyalar, soyalarda o'sadi.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Yer ustki qismi ning (ba'zan bargining) damlamasi ovqat hazm bo'lishi buzilganda uni tartibga solish, kamqonlik, ba'zi asab va yurak kasalliklarini davolash uchun hamda tirishishga qarshi ta'sir etuvchi, og'riq qoldiruvchi, surgi, siydik va yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Limono't asosan xalq tabobatida ishlatiladi.

Muxallis barg qisraq (xapri)-Perovskia serophulariifolia Bunge. Ko'p yillik, yo'g'onlashuvchan poyali, qo'ng'ir qobiqli chala buta, balandligi 60-120 sm. Barglari uzunchoq yoki tuxumsimon, to'ntoq tishchali, Gullari kalta tutqichli kam gulli, halqasimonga o'xshash joylashgan shingili to'pgul hosil qiladi. Kosachasini uzunligi 5-6 mm, binafsha rangli, barcha qismi uzun tuklar bilan qoplangan. Tojbargalari binafsha rangda, uzunligi 11-12 mm, siyrak momiq.

Iyun-iyulda gullab, iyul-avgust oylarida yetiladi.

Tog'larning pastki mintaqalaridagi suyurma toshlar, shag'alli joylarda o'sadi. Shoximardon daryosi havzasida ham shag'al toshli yonbag'irlarda, qoyalar oralig'ida, ba'zan soy o'zanlarida o'sishi kuzatildi. Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi xalq orasida qo'tir va teri kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismining surmasi (nastoykasi) va damlamasidan tayyorlangan surtmasi bakteritsid ta'siriga hamda yaralarni davolash xossasiga ega ekanligi tajribada aniqlangan va shu maqsadda ilmiy tibbiyotda ishlatishga tavsiya etilgan.

Xapri yovoyi holda uchraydigan o'simlik bo'lishiga qaramay tajriba maydonida oson o'stiriladi, urug'ini laboratoriya va dala sharoitida unib chiqishi 83% va 58%. Kuzda (noyabr) oyida ekilganda mart oyini o'rtalarida unib chiqadi. Iyun oyini oxirgi o'n kunligida gullaydi, urug'i oktyabr-noyabr oylarida pishib yetiladi. Hisoblash bo'yicha gektar hisobiga 700-750 kg massasini olish mumkin.

Jadval № 1

Muxallis barg qisraq - xapri o'simligining fenologik fazalari

O'siml	Vegetat ni boshlan	G'unc shi	Gullashi			Gullash i (kun)	Mevalashi		Urug' yetili shi (kun)
			boshla nishi	qiyg'o gullas	gulla shini		Boshla	oxiri	
1	15.03	10.06	20.06	5.07	20.09	110	25.10	25.11	30



2	20.03	12.06	22.06	4.07	23.09	92	26.10	20.11	24
3	16.03	11.06	24.06	10.07	22.09	88	23.10	23.11	30
4	17.03	11.06	25.06	15.07	21.09	86	25.10	22.11	27
5	15.03	13.06	26.06	12.07	23.09	87	26.10	24.11	28

Urug'i va tomiridan tez va oson ko'payadigan o'simlik, odatda uni vegetatsiyasi mart oyining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. Bahor oylari tez o'sadi, iyul oylariga borib poyasining balandligi 60-100 sm ga borib yetadi, yon novdalarini uzunligi 10-70 sm ni tashkil qiladi. Gullash boshlanishi iyunni 10-15- kunlariga to'g'ri keladi. Oxirgi gullari iyul oxirlarigacha davom etadi. Xapriining ko'p yillik bo'lishligiga qaramay uni poyalari qirqib olinganda ham 17 iyulda u yangi novdalar chiqaradi. Yangi novdalarini balandligi avgust oyini oxirlariga borib, 50-60 sm ga yetadi. Yangi novdalar ham g'unchalaydi va avgustni oxirlaridan to sentyabr-oktyabrgacha gullaydi.

Xapri urug'larining yetilishi noyabr o'rtalarida kuzatildi, vegetatsiyasining oxiri noyabr oxirlarigacha davom etadi. Bir tupini qirqib olib ho'l holatda tortilganda 8 kg ni, quruq holatda esa 600-700 gr ni tashkil qiladi. Gektariga hisoblaganda esa: ho'l xolatda 90 tonnani, quruq holatda esa 6,7 tonnani tashkil qiladi. Butun gullash davomida asalarilar xapri nektaridan foydalanadilar, uni har bir guli hisobiga 0,08-0,11 mg nektar ajratadi, nektar konsentratsiyasi 49-63% gacha. Qalin o'stirilgan xapri plantatsiyalari gektariga 50-60 kg asal beradi. Xapriining vegetatsiyasi ko'p yillik kuzatishlar bo'yicha mart oyining birinchi dekadasiga to'g'ri keladi. Poyaning uzunligi 17 aprelda 15-17 sm, 26 aprelda 19-20 sm, 5 mayda 20-23 sm, 19 mayda 40-50 sm, 5 iyunda 70-100 smni tashkil qildi.

Gunchalashi 5 iyundan boshlandi, birinchi gullari 15 iyundan, qiyg'os gullashi 20-23 iyundan, gullashining tugashi 20-30 iyulgacha, 20 avgustdan boshlab urug'lari pisha boshladi. Ayrim hollarda oxirgi gullari ochilishi sentyabr oxirigacha davom etdi.

Iyulning o'rtalaridan mavjud o'simlikning bir qismi qirqib olindi. Birinchi gullari 26-avgustdan paydo bo'ldi, poyaning balandligi 25-30 smga yetdi. Yangi novdalarning gullashi avgust oxiridan to sentyabr o'rtalarigacha davom etdi. 2021 yilda xapri (17.07.2021) poyalarining balandligi 70 smdan 120 sm gacha, bir tupda 86 ta poya paydo bo'ldi. 1tupini ho'l xolatdagi og'irligi 2,10 kg qariyb u 1M² ni egalladi, 26 avgustdan birinchi gullari ochildi, poyalari balandligi 50-60 smni tashkil qildi.

Xushbo'y marmarak - Salvia sslarea L. Ko'p yillik o't, poyasi tik o'suvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, qalin uzun tuklar bilan qoplangan, balandliki 50-100 sm. Barglari yirik tuxumsimon, asosi yuraksimon, kosachasi 9-11 mm uzunlikda qovurg'ali, qalin bezchali tuklar bilan qoplangan. Tojibarglari och-pushti binafsha rangda, 25 mm uzunlikda. Yong'oqchasi yumshoq, uch qirrali, och-qo'ng'ir 2,5 mm uzunlikda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi.

Shoximardon daryosi havzasida ekinzorlarda va bog'larda, tog'oldi hududlarida o'sishi kuzatildi. Bargining damlamasi burushtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo'llari yallig'lanishida,



tomoq, milk shilliq pardalari yallig'lanishida og'iz chayish uchun qo'llaniladi. Bargi tomoq, me'da kasalliklari va ichketarda ishlatiladigan choylar yig'malar tarkibiga kiradi.

Bir qator shifobaxsh xususiyatlaridan foydalanish maqsadida xushbo'y marmarak o'simligi tajriba maydonida sinab ko'rildi va o'rganildi. Kuz paytida ekilgan urug'dan erta bahorda nixollar unib chiqa boshladi, iyun-iyul oylarida gulladi, urug'i kuz oylarida pishib yetildi. Gullari ertalab 8-9 larda ochilib to kech 18-19 gacha davom etadi. Har bir gulni hayoti va nektar ajratishi 2 sutka davom etadi. Nektar ajralishi ertalabdan to kechgacha davom etadi.

Vegetatsiyasining boshlanishi 10-15 martlarda, g'unchalashi 20-25 mayda, gullash boshlashi 20-25 iyunlarda, qiyg'os gullashi 1-5 iyulda, qiyg'os gullashi iyulning oxirigacha, gullash tugashi 20-avgustda.

Xushbo'y marmarakning unib chiqishi 5-10 aprelda, 20-aprelda balandligi 17sm, 28-aprelda 17, 24, 25 sm - o'rtacha 20,7sm, 6-iyunda 56sm, 22-iyunda 70 sm, 27 iyunda - g'unchalash, 6 iyulda 80 sm, qiyg'os gullashi, 12 iyuldan qiyg'os gullashi 100 sm, 29 iyulda qiyg'os gullashining tugashi kuzatildi. Birinchi yili 40 tup o'simlikdan faqat 15 tasi gulladi.

Shoximardon daryosi havzasida keng tarqalgan shifobaxsh o'simlik turlaridan unumli va oqilona foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularning botanik xususiyatlari, geografik tarqalishi, qo'llanilishi, foydalanish muddatlari, kimyoviy tarkibi hamda shifobaxsh giyoh boyliklarini muhofaza etish yo'llarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, xalq tabobati va ilmiy tabobatda qo'llanilishi, turli xastaliklarni davolashda ishlatiladigan shifobaxsh giyohlardan oddiy va murakkab yig'malar tayyorlashni bilish ham muhim ahamiyatga egadir. Shifobaxsh o'simliklar boyliklaridan foydalanishda o'simlik guruhlarining ekologik muvozanatiga ta'sir etmaslik uchun ularni yig'ishtirib olish va tayyorlash qoidalariga rioya qilish lozim. Muvozanat buzilmasa o'simliklar yo'qotgan massalarini oson va tez qayta tiklaydi. O'simliklar xom ashyolarni yig'ishtrishda turlarning biologik xususiyatlari hisobga olmasdan, oqilona foydalanmaslik, o'simlik turlari hamda boyliklarini qayta tiklashga juda katta ziyon keltiradi. Ta'kidlash joizki, ayrim muhim va ahamiyatli turlar zahiralari juda kamayib ketgan, shuni hisobiga olgan holda mazkur turlarni madaniylashtirish zarur.

REFERENCES

1. Акбарова М. Х., Асадова М. Е. J. SCUTELLARIA L. ТУРКУМИ ТУРЛАРИНИНГ ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
2. Акбарова М. Х., Асадова М. Қ., Жўраев З. Н. Ў. SCUTELLARIA COMOSA JUZ.(LAMIACEAE) НИНГ ФАРФОНА ВОДИЙСИДАГИ ТАБИИЙ ЗАХИРАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 461-471.



3. Акбарова М. Х. СОСТОЯНИЕ ЦЕНОПОПУЛЯЦИЙ SCUTELLARIA ADENOSTEGIA BRIQ.(LAMIACEAE) В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ //SCIENTIFIC JOURNAL. – 2020.

4. Акбарова М. Х., Ёкубов А. А., Махмудов М. У. Состояние ценопопуляций Scutellaria adenostegia (Lamiaceae) Ферганской долины //Advances in Science and Technology. – 2020. – С. 21-22.

5. Тургинов О. Т., Акбарова М. Х. Распространение видовой флоры рода Scutellaria L.(Lamiaceae) Ферганской долины //American Journal of Plant Sciences. – 2020. – Т. 11. – С. 1533-1544.

6. Khusanovna, Akbarova Mukhayo. "Distribution of Species of the Genus Scutellaria L.(Lamiaceae) in the Flora of the Fergana Valley." *JournalNX*: 73-78.

7. Akbarova M. X. et al. The Medicinal Types Of Scutella (Lamiaceous) Group Spread Over Fergana Valley //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 105-110.

8. Акбарова М. Х. Обидов МВ Dorivor Scutellaria comosa Juz.(Lamiaceae) ning Farg'ona vodiysidagi senoropulyatsiya holati //НамДУ илмий ахборотномаси-Наманган-2020. – Т. 8. – С. 78-87.

9. Akbarova M. X., Turdibekov M. M. O. G. L. Shoximardonsoy havzasida tarqalgan shifobaxsh o'simliklar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 102-108.